



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-sentabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1320,0 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 76,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 153,7 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 610,7 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 632,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,6 foizni tashkil etdi.






Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Chortoq tumanida (95,5 mlrd.so'm yoki 154,5 %) – kadastr hujjatlariga asosan yakka tartibda qurib bitgazilgan turar-joy qurilishi bajarildi;
- Mingbuloq tumanida (48,0 mlrd.so'm yoki 142,4 %)- Mingbuloq tumanida kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hamda aholi tomonidan qurilgan turar joylar hisobiga amalga oshirildi;
- Pop tumani (109,5 mlrd.so'm yoki 126,7 %)- hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash hamda aholi tomonidan qurilgan turar joylar hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Yangiqo'rg'on tumanida - 71,5% (93,4 mlrd.so'm), To'raqo'rg'on tumanida – 90,8% (95,9 mlrd.so'm) qayd etildi.

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 20,3 %ini tashkil etdi, Kosonsoy tumanida 10,4 %ni, Chortoq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,2 %ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Namangan tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Norin tumanida 4,8 % ni , Uchqo`rg`on tumanida ushbu ko`rsatkich 6,5 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Mulkchilik shakllari


Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1239,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,9 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0.4** foiz punktga kamaydi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.